

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobbiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, k.f.d., prof. T.Azizov, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., dots. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.n., Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.n. dots. L.Yuldasheva, f.f.n., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva, fil.f.n., dots. S.Misirov.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n., dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.n., dots. S.Abdullayev.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: N.Yusupov.

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-maydagi kengaytirilgan 5-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 5). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023

hayvonlar tasvirini ko'rganini, mahalliy xalq savr daraxtidan ot, tuya, xo'kiz va alkorlar suratini yasashganligini yozadi. Nizomiy Arro'ziy Samarqandiyning "Nodir hikoyatlar" asarida shunday bir voqeyiy hikoya bor; Sulton Mahmud Xorazmiyni bo'ysundirgach, u yyerda shuhrat topgan Abu Ali ibn Sino, Abdusal Masixiy va Abu Rayhon Beruniy o'z saroyiga, g'aznaga yuborilishini talab qilib, Xorazmshohga xat yozadi. Ibn Sino bilan Abusaxl Masixiy g'aznaga borishdan bosh tortishdi. Shunda Xorazmshoh bularni yashirincha Guronga qochirib yuborgach, qolgan olimlarni sultonni elchisiga ko'rsatadi. Mahmud Ibn Sinoni qo'lga tushirish maqsadida rassomlik ham qo'lidan keladigan Abunasr A'roqa Ibn Sinoni rasmini chizigna buyuradi. So'ng naqqoshlarni chaqirib mazkur rasmdan qirq nusxa ko'chirishni buyurdi va podsho farmoni bilan birga har tomonga chopar yubordi. Atrofdagi hukmdorlar "Mana shunday suratli kishi bor, uni Abu Ali ibn Sino deyishadi, qidiringlar, ushlab mening huzurimga yuboringlar!" deb iltimos qiladi. Abu Ali Ibn Sino yo'lning mashaqqatlarini chekib, Gurgonga yyetadi. Gurgon podshosi Qobus ulug' inson, faylasuf tabiatli, fozil kishi edi. U Ibn Sinoni ko'rishi bilan Mahmud yuborgan suratdagi odam shu ekanini biladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, O'rta Osiyoda ham tasviriy san'at bilan qiziqishgan, bu yerda ham miniatyura san'ati an'analari mavjud bo'lgan.

O'zbekistonning boy tarixi, madaniyati o'rganila boshlandi. O'rganish natijasida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, ko'p tarixiy va aniq faktlar yo'qqa chiqarildi yoki davr siyosatiga moslashtirildi. Bugungi kunga kelib Mustaqillik tufayli O'rta Osiyo jahonning eng qadimgi madaniy markazlaridan bo'lganligi isbotlandi. Mezbon sifatida xorijlik ilm ahlini tadqiqotlar uchun tashrif buyurishlariga imkon berilmoqda. Ammo bu tadqiqotlar osonlikcha olib borilgani yo'q, sababi barcha yig'ilgan manbalarni bir-biri bilan solishtirib faktlarga tayanib tarixchi va san'atshunoslar bilan hamkorlikda o'rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi " O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida "gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz
2. Tasviriy san'at asoslari. R. Hasanov .G.G'ulom nasryoti Toshkent-2009 yil
3. Sharq miniatyura maktablari. maqolalar to'plami. A. madaminov, N. Normatov. Toshkent G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1989 yil.
4. Temuriylar va Boburiylar davri miniatyura san'ati rivoji. A. Madraimov O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Temuriylar tarixi davlati muzeyi. 101-110 betlar. Toshkent-2019 yil.
5. Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi. Shohalil Shoyoqubov. Toshkent "O'zbekiston" 2006 yil.

NAQSHBANDIYA TA'LIMOTIDA NAFS TUSHUNCHASI

Navro'zova Gulchehra Ne'matovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar"

kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori Dr.Sc.

Tel: 91 411-77-07 email: premium.progress@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Bahouddin Naqshband nomi bilan mashhur bo'lgan Muhammad ibn Muhammad al - Buxoriy (1318 -1389) tomonidan asoslangan jahonga mashhur Naqshbandiya ta'limotida nafs tushunchasi falsafiy tahlil etilgan. "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" asaridagi nafsga oid Naqshband o'g'itlari, nafs riyoziyatiga oid Xoja Yusuf Hamadoniyni "Odob tariqat" asaridagi g'oyalari qiyosiy tahlil etilgan. Manbalar asosida nafs, uning etti turi, nafs ammora va uni tarbiyalash masalasi falsafiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya, Yusuf Hamadoni, tariqat, nafs, nafs ammora, nafs riyoziyati, nafsni tarbiyalash.

ПОНЯТИЕ НАФС В УЧЕНИИ НАКШБАНДИИ

Аннотация: В статье представлен философский анализ понятие нафс во всемирно известном учении Накшбандия, основанном Мухаммаде ибн Мухаммаде ал-Бухари (1318 -1389), известном как Бахауддин Накшбанд. Сравнительный анализ идей Накшбанда о нафс в работе "Макомати Ходжа Бахауддин Накшбанд", Ходжа Юсуф Хамаданий в работе "Одоб таркат" о риезати нафс. Основываясь на источниках, философски анализируется вопрос о нафс, ее семи типах, нафси амморе и ее воспитании.

Ключевые слова: Бахауддин Накшбанд, Накшбандия, Юсуф Хамадони, тарикат, нафс, нафси аммора, Нафс риезати, воспитание Нафс.

THE CONCEPT OF NAFS IN THE NAQShBANDIYA DOCTRINE

Annotation: The article presents a philosophical analysis of the concept of nafs in the world-famous Naqshbandiya doctrine, founded by Muhammad ibn Muhammad al-Bukhari (1318-1389), known as Bahauddin Naqshband. Comparative analysis of Naqshband's ideas about nafs in the work "Makomati Khoja Bahauddin Naqshband", Khoja Yusuf Hamadani in the work "Okobi tarkat" about riezati nafs. Based on the sources, the question of nafs, its seven types, nafs ammora and its upbringing is philosophically analyzed.

Keywords: Bahauddin Naqshband, Naqshbandiya, Yusuf Hamadoni, tariqat, nafs, nafs ammora, Nafs riyoziyati, nurturing Nafs.

Kirish

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalash masalasi dolzarbdir. Globallashuv sharoitida ommaviy madaniyat ta'sirida ma'naviy qashshoqlanish jarayoni sezilmoqda. Nafs istaklariga berilish, xudbinlik, hasad, g'azab kabi illatlar jamoalarda parokandalik va nizolarni keltirib chiqarmoqda. Bu illatlar mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etmoqda. Inson qadri ulug'lanayotgan va insonga e'tibor qaratilayotgan hozirgi davrda nafsni tarbiyalash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bahouddin Naqshband nomi bilan mashhur bo'lgan Muhammad ibn Muhammad al - Buxoriy (1318 -1389) tomonidan asoslangan jahonga mashhur Naqshbandiya ta'limotida nafs tarbiyasi mo'tadil, me'yorida, maqbul yo'llar bilan olib borilgan. Bu ta'limotda "Dil ba Yoru, dast ba kor" shiori asosida insonni imonli va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning maqbul uslublari topilgan. Naqshbandiya ta'limotining nafs tushunchasi, nafs tarbiyasiga oid g'oyalarini o'rganish farovon, tinch va baxtli hayotni ta'minlashga yordam beradi. Shuning uchun maqolada Naqshbandiya ta'limotidagi nafs tushunchasini falsafiy tahlil etishni maqsad qilib qo'ydik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Mustaqillik yillarida tasavvuf ta'limoti va uning tariqatlarini o'rganishga maxsus e'tibor berila boshlandi. Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning "Tasavvuf" asarini nashr etilishi inson va uning kamoloti masalasiga yangicha qarash ibtidosi bo'ldi. Tasavvuf ta'limotini har tomonlama o'rganishda olimlar Ibrohim Haqqul, Sayfiddin Sayfulloh, Nodirxon Hasan, Ro'zmatzoda Qodirqul, M.M. Mamatov, Z. Isakovalarning xizmatlari katta. Shuningdek yosh tadqiqotchilar Muzaffarov Firuz, Sanjar Murodov, Ra'no Raupova, Z. Narziev, L. Hayitov, Norova Malika va Evatov Salimjonlarning ham boshlayotgan ishlari tahsinga sazovor.

Naqshbandiya ta'limotini o'rganishga olimlar Shodiev R, Orif Usmon, Sultonmurod Olim, Xolmo'minov J, Sharipova O, Safarova M, Namozov Bobir, Komiljon Rahimov, Zoirov E, Sobirjon Isroilov, Rahmatova Xolidaxon, Samadov Xurshid, A. Nuriddinov, G'afurov Doniyor va boshqalarning munosib hissalarini bor. Manbashunos olim Mahmud Hasaniy tomonidan Muhammad Boqirning "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" asarining o'zbek tiliga tarjimasi Bahouddin Naqshband hayotini mukammal o'rganishga imkon yaratdi. Boltaev Abdurahim tomonidan Muhammad Porsoning "Risoi qudsiya" va Sunatillo Rahmonov tomonidan Ya'qubi Charxiyning "Risoi unsiya" asarining tarjima etilishi Naqshbandshunoslikda katta voqea bo'ldi. Shu manbalar asosida Bahouddin Naqshband ta'limotiga oid monografiyaning nashr etilishi [1] Buxoroning Yetti Piri haqida [2] risola yaratilishi Naqshbandiyani mukammal o'rganishga ilk qadamlar bo'ldi.

Naqshbandiya ta'limotidagi nafs masalasi M. A. Jo'shonning "Tasavvuf va nafs tarbiyasi" hamda Muhammad Zohid Qudquning "Nafs nimadir?" asarlarida yaxshi tahlil etilgan. 2021 yilda Zebuniso Husayn qizi tomonidan tarjima etilgan. Muhammad Zohid Qutquning "Nafs nimadir?" asarida nafs tushunchasi, uning etti turi: nafi ammora, nafi lavvoma, nafi mulhama, nafi mutmainna, nafi roziya, nafi marziya, nafi sofiya batafsil tahlil etilgan. Asarda nafi ammoraning 12 alomati: yomon sifati va odatlari: kufr, shirk, g'afolat, jaholat, gunohlarga sho'ng'imoq, kibr, hirs, baxillik, g'azab, hasad, nafrat, shahvat tavsiflangan va uni tarbiyalash yo'llari ko'rsatilgan.

Faylasuf olim Omunulla Fayzullaevning "Nafs, jon va ruh" asarlari bu mavzuni yoritishda muhim manbadir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mustaqillik yillarida falsafada inson masalasi yangicha yondashuvlar asosida o'rganilmoqda. Tasavvuf ta'limoti va uning tariqatlarida insonni mukammal o'rganishga maxsus e'tibor berila boshlandi. Inson borlig'i, jismi, nafi, qalbi, ruhini o'rganish uchun metafizik yondashuv zarur. Nafs masalasini o'rganishda inson yaxlit, bir butun holatda olinib tizimli tahlil etiladi. Shuningdek tizimli yondashuv, germevtika, tariyxiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyoslash, taqqoslash va umumlashtirish, induktiv va detektiv xulosa chiqarish kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Tasavvuf ahlining fikricha, "Har kim nafsini tanisa, batahqiq parvardigorini ham taniydi". Shuning uchun bu ta'limot nafsni bilmoq va uni tarbiyalashga alohida e'tibor beradi. Naqshbandiya ta'limotida inson kamolotining eng zaruriy sharti nafs tarbiyasidir.

Nafs nimadir? "Nafs insonning moddiy o'zligi, "Men"ligidir. Bizning botinimizga bir idora etuvchi, jismimizni, moddiy borlig'imizni, hayot uchun zaruriy manfaatlarimizni qo'riqlash va

qo'llash maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi ma'naviy bir borliq nafsdur" [3]. Demak, nafs inson vujudiga ruxning kirganidan boshlab hayoti davomida moddiy borlig'ini me'yordagi ehtiyojlarini qondirish uchun hosil bo'ladigan quvvatdir. Umuman olganda nafs me'yorida bo'lganida zaruriydir. Faylasuf olim falsafa fanlari doktori, professor O.Fayzullaev nafsni zaruriy va zararli deb ikki turga bo'lganlari juda to'g'ridir. Nafs me'yoridan oshsa zararli bo'ladi. Naqshbandiya ta'limoti nafsni me'yorda saqlash uchun "Dil ba yoru dast bakor" – "Qalb ollox bilan, qo'l ishda" shiori asosida insonning ma'naviy va moddiy tomonini uyg'un holda bo'lishiga e'tibor qaratadi. Bu ta'limot shiori asosida inson iymonli va mehnatsevar bo'lib kamolga etadi.

Naqshbandiya ta'limotidagi nafs tushunchasini shakllanishida Yusuf Hamadoniy va Xojagon tariqati pirlarining asarlari manba bo'lib xizmat qilgan. Adabiyot shunos olimlar Sayfiddin Sayfulloh va Nodirxon Hasan Yusuf Hamadoniy asarlarini tarjima qilganlar. Shayx Yucuf Xamadoniy o'zining "Odob tariqat" asarida inson kamoloti uchun to'rt asosga e'tibor berish lozimligi ta'kidlab o'tgan. Birinchi asos nafs riyozati bo'lib, bunda: "Inson shahvat, ya'ni dunyoviy orzu-istagi o'lchovida emas, balki hojat doirasida eyishi, ichishi, kiyinishi kerak"[4], deydi Yusuf Hamadoniy. Uning bu g'oyalarining mazmun-mohiyatini Baxouddin Naqshband tushunish va amalda qo'llash uchun nafs nima ekanligi masalasiga maxsus e'tibor bergan.

Nafsning mavjudligi zarurat va uning istaklari tabiiydir. Lekin uni nazorat qilish, tarbiyalash va yomon illatlardan poklab turish shart. Chunki uning tabiiy istaklari bajo etilaversa, u haddidan oshadi va jilovlab bo'lmaydigan holatga keladi. Boborahim Mashrabning bu borada aytgan quyidagi fikri bunga dalildir: "Nur bo'lur erdimki, nafs ajdarhosi bo'lmasa".

Naqshbandiya talimotida nafsning etti turi: nafi ammora, nafi lavvoma, nafi mulhama, nafi mutmainna, nafi roziya, nafi marziya, nafi sofiya borligi ta'kitlanadi. Nafi ammoraning 12 alomati, yomon sifati va odatlari: kufr, shirk, g'aflat, jaholat, gunohlarga sho'ng'imoq, kibr, hirs, baxillik, g'azab, hasad, nafrat, shahvat borligi ko'rsatiladi.

Nafsning dastlabki holati ammoralik bo'lib, bu insonni gunohlarga botib yurishiga sababchi bo'ladi. Uni manbalarda quyidagicha ta'riflaganlar:

Nafi ammora biri, ham ko'kdir uning rangi,

Sifatlari ettidir, ham hayvoni vahshiydir.

"Laammaratul bissu" mazharidir,

Hirs, tama', shahvat, bug'zu hasad, baxillik fe'lidir.

Dardu zulm, hubbu dunyo zavqidir.

Salbu dunyo, mavti joni xavfidir[5].

Tasavvuf ahli umumiy nuqtai nafari bo'yicha, nafi ammora barcha yomonlik, ifloslik gunohlarning doyasi erur. Junayd Bag'dodiy "Kufarning asosi - nafsning murodi erur", desa, Abu Sulaymon Daroniy "Nafs ham xoin, ham g'anim erur. Eng yaxshi amal unga qarshi kurashmoqdir", deydi. Najmiddin Komilov "Nafs – shayton qutqusi, nafs – tubanlikka tortadigan kuch, nafs – hirsu havas darakchisi, ta'ma, manmanlik, jaholat, fahshni keltirib chiqaradigan quvvat. Shuning uchun insonning birinchi vazifasi o'z nafsini jilovlab olish, uni mahv etishdir" [6]deydi.

Bahouddin Naqshband nafs haqida quyidagi fikrlarni aytganlar:

"Bu yo'lda yuruvchi o'z nafsini Fir'avning nafsidan yuz marta battar deb bilmasa, demak bu yo'lda emas".

"Har bir tavfiq egasi o'z nafsiga qarshi turmog'i va bu har qancha oz bo'lsa ham ko'p bilsin hamda bu tavfiqning shukrini qilsin".

“Agar abdollar maqomini hohlasang, bas, senga ahvonni o’zgartirish kerak” deganlaridan murod bu Alloh jalla jalollohuga suyangan haqiqiy murshid inoyati orqali axloqni hamda yoqimsiz fe’llarni uzgartirish bilan nafsiga qarshi kurashishdir”. Bayt:

Abdol on, ki o’ mubaddal shavad,

Hamrash az tabdili Yazdon xall shavad.

Mazmuni: O’zini alloh inoyati bilan o’zgartira olgan, sharobi sirkaga aylangan odam abdoldir.

“Kishi o’zining nafsiga tuhmat qilishi kerak. Kimki Haq subhonahu inoyati bilan o’z nafsining yomonligini tanigan, uning hiyla-nayrangini anglagan bulsa, bunday qilish unga oson buladi”.

“Agar xohlasam, nafsimni ellik marta suv labiga olib borib, yana tashna holda qaytarib kelaman”. [7]

Bahouddin Naqshband nafslarini jilovlab, yuksak darajalarga erishganlar. Bu haqida “Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband” asarida shunday so’zlari keltirilgan: “Har bir mashoyixning oynasida ikki tomon bor, bizning oynamizda esa olti tomon. Qirq yildirki, biz oynadorlik qilamiz, vujudimiz oynasi hech qachon xato qilgan emas. Har vaqt sening ko’nglingdan nimaiki o’tsa biz uni bexato ko’ramiz”.

Qutbu-l-avliyo Abdul Kuddusdan naql qilinishicha, u aytgan ekan: “Xojamiz (qadasallohu sirrahu-l-aziz) ning sayri osmon va erning barcha tabaqalariga joriy edi”.

Naqshbandiya ta’limotida bo’lgan Hazrat Alisher Navoiy hirsu havas, nafs havo, zulmu sitam haqida gapirar ekan, uni quyidagi satrlarda ifoda etadi:

To hirsu havas xirmanini barbod o’lmas,

To nafs havo qasri baraftod o’lmas,

To zulmu sitam jonig’a bedod o’lmas,

El shod o’lmas, mamlakat obod o’lmas.

Shuningdek, Navoiy nafsni dushmandan-da xavfli dushman, unga tobe bo’lib g’animni band aylashi mumkin, lekin nafsni taslim etish behad dushvor, deya ta’kidlaydi:

Bo’lib nafsing’a tobi’, band etarsen tushsa dushmanni,

Senga yo’q nafsdek dushman, qila olsang ani qil bandi.

Ammora nafsiga xos bo’lgan bu illatlar inson qo’l-oyoqlarini bog’lab, uni faqat yomonlik qilishga chorlaydi. Shuning uchun Yusuf Hamadoni inson kamolotining birinchi asosini nafs riyoziyoti, deb biladi. Inson nafs tarbiyalanib, ammoralikdan mutmainna darajasiga etganida, nafs xotirjam bo’ladi va inson axloqiy kamolotga etadi. Shuning uchun nafs mumainnani me’yordagi nafs deyish mumkin. Inson kamol topib nafs roziya, marziya, safiya darajasiga yuksalganida, unda malakiy, avliyo va nabiy larga xos hamda ilohiy sifatlar yuzaga keladi. Bu vaqtda u Komil Insonga aylanadi.

Yusuf Hamadoni “Odob tariqat” risolasida nafs riyozati haqida yozadiki, agar bir kecha kunduzda bir marta taom eyish kifoya qilsa, ikki marta eyish kerak emas, agar bir marta ozgina eyish kifoya qilsa to’yib emaslik lozim. Agar ochlik og’ir mashaqqat bo’lsa, hayotni ochlik asosida qurish kerak emas. Bu fikrdan ma’lum bo’ladiki, inson o’z ehtiyoji doirasida nafsiga muxolifat qilishi, ammo ochlik bilan o’zini mashaqqatda qoldirmasligi kerak. Insonning holdan toyishi va nobud bo’lishi nafs riyozati emas. Bahouddin Naqshband ham nafs tarbiyasiga me’yorni saqlash, zaruriy nafsni e’tiborga olish kerakligini aytganlar.

Yusuf Hamadoniyning asarida nafs riyoziati ikki ko'rinishda bo'lib, birinchisi uzlat, ikkinchisi esa kam uxlashdir, deb ko'rsatilgan.

Uzlat deganda Yusuf Hamadoniyy avvalo "ko'ngil muhofazasi" ni nazarda tutadi. Bunda inson o'z qalbini kibr, hasad, g'azab, ta'ma, g'iybat, hirs va shayton vasvasasidan muhofaza qilishi lozim. Chunki qalb bir pokiza makon, ya'ni buyuk Alloh makonidir. Mana shu qalbni pokiza saqlay olgan insongina komillik darajasiga etadi. Uzlatning boshqa mazmuni "zehn muhofazasi". Bunda ham inson o'zining zehni muhofaza, ya'ni uni har xil keraksiz o'ylardan xoli qilishi zarur. Zehn – bu xotira, xayol quvvatidir. Azaldan xalq orasida kam uchraydigan o'tkir zehnli, quvvai hofizasi kuchli, xayoliy darajasi juda keng bo'lgan insonlar ulug'langanlar. Inson xotirasidagi gina, g'azab, keraksiz faktlar inson kamolotiga g'ov bo'ladi. Shuning uchun zehnda kerakli ma'lumotlarni saqlash lozim. Umr oqib ketar daryo kabidir. Inson umrini behuda xayollar bilan o'tkazmasligi, ruhini azobga qo'ymasligi lozim. Chunki jon, ruh, tana omonat ekan, uni har qanday keraksiz xayollar bilan azoblashga hech kimning haqqi yo'q. Bir-birovimizga, ota-ona, farzandlarga, aka-uka, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilarga kechirimli bo'lib, ularga nisbatan yomon fikrlarni zehnimizdan, xayolimizdan olib tashlash kamolotga imkon bo'ladi.

Yusuf Hamadoniyning uzlatni "ko'ngil muhofazasi" va "zehn muhofazasi" sifatida talqin etishi Naqshbandiya ta'limotida "Xilvat dar anjuman" tamoyili va "Dil ba Yoru dast ba kor" shiorini shakllanishiga asos bo'ldi.

Yusuf Xamadoniyy o'zining "O'dobi tariqat" asarida nafs riyoziatining yana bir ko'rinishini "kam uxlash"dir, deb izohlaydi. "Ko'p uxlashlik umrni zoe etadi, badanni bo'shashtiradi, ish unumi va ishtiyoqini yo'qotadi", deb ta'kidlaydi. "Kishi bir kunda sakkiz soatdan ortiq uxlamasligi kerak. Aks holda inson umrining uchdan birini yo'qotgan bo'ladi", - deya muallif Imom G'azzoliyning fikriga iqtibos keltiradi.

Yusuf Hamadoniyy o'z asarida ovqatlanish va uxlashning shartlarini bayon etadi va ovqatlanish shartlariga quyidagilarni kiritadi: inson eyishga ehtiyoj sezganda, tahoratli holda, yaqinlari bilan birga ovqatlanishga amal qilish, shuningdek, "Bismilloh" deb boshlash va ne'mat shukronasini keltirish, og'ziga luqmani kichikroq olish, ovqatni asta-sekin iste'mol qilish, birovning luqmasini emaslik. Uxlash sharti: tahoratli holda yotish, qorni to'q uxlamaslik, duo, salavotlar va Alloh zikri bilan uyquga yotish. Bahouddin Naqshband ham inson kamolotga etishi uchun oz uxlashi, oz eyishi va oz gapirishi lozim degan fikrni ta'kidlaganlar.

Nafsi ammora insonni g'aflat holatiga soladi.[8] Holbuki Naqshbandiyada nafasni behudaga isrof qilish qattiq qoralanadi. Naqshbandiya ta'limotidagi "Hush dar dam" va "Nazar bar qadam" rashha – hayotbaxsh o'gitdari insonni g'aflat holatida chiqarib mushohada maydoniga kiritadi.

Xulosa va takliflar

Naqshbandiya ta'limotidagi nafs tarbiyasi masalalarini tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Nafs darajasiga bog'liq inson axloqiy kamolot maqomlarini bilishi, o'rganishi, ajratishi insonni o'z-o'zini anglashi uchun zarurdir. Nafs tarbiyasi ruhiy kamolot yo'lida, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Nafs tarbiyasida me'yorga amal qilishi lozim. Nafs inson moddiy borlig'ining ehtiyoji darajasida bo'lsa u zaruriydir. Ehtiyojdan ortgan nafs zararli bo'lib, unga kurashish lozim.



Nafsi mutmainna – xotirjam nafs etti nafs turi ichida me'yordagi nafsdur. Undan pastda bo'lgan nafs ko'rinishlarini tarbiyalash zarur. Undan yuksak holatdagi nafs insonni komillik darajasiga etkazadi.

Bahouddin Naqshbandning nafs tarbiyasiga oid g'oyalarining shakllanishida Yusuf Hamadoniyning asarlari manba bo'lib xizmat qilgan.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi taklifni tavsiya etamiz:

Maktabgacha tarbiya maskanlaridan to oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim jarayoniga albatta "Nafs tarbiyasi" fanini va shunga oid mashg'ulotlarni kiritish lozim. Shunda ta'lim sifati talab darajasida bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Navro'zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. T.:O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, 2021. 244 b.
2. Navro'zova G., Zoirov E. Buxoroi sharifning yetti piri. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2018. 72 b.
3. Jo'shon M. A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. T.: Cho'lpon, 1998. 13-bet.
4. Xoja Yusuf Hamadoni. Odo bi tariqat.// Hayot mezon. Odo bi tariqat, Koinot va inson haqida. T.: "Movarannahr", 2018. 101- bet.
5. Siddiq Naji Eren. Allohga va rasuliga eng yaqin yo'l. 3-nashr. Istanbul: Sena, 1992. 229-bet.
6. Komilov N. Tasvuf. T.: Movarannahr-O'zbekiston, 2009. 396-bet.
7. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. / Forsiydan tarjimon, so'z boshi, izoh va lug'at muallifi Mahmud Hasaniy. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. 114-116, 128 b.
8. Muhammad Zohid Qutqu. Nafs nimadir?. T.: "Sharq", 2021. 39-41 b.

YDK: 111:008

KONSTRUKTIVISTIK PARADIGMANING ASOSIY YO'NALISHLARI

Sultanova Gulnoza Sabirovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Falsafa fanlari doktori(DSc), professor v.b.

E- mail: sgulnoza33@mail.ru



MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

01.00.00

ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

- 1 **N-zno/p-si geterotuzilmasining optoelektronik xususiyatlari**
X.J. Mansurov, N.Y. Yunusaliev, M. Mamirov, M. Ismatullaeva, X.A. Maxmudov, M.U. Jumaeva, S. Mamadaliev, 3
- 2 **Ko'p komponentali geterotuzilmalarning rivojlanish istiqbollari hamda fan va ishlab chiqarishda qo'llanilishi**
To'xtasinova S.D, Ismatullaeva M.A, Abduqahhorova M.A, Ibragimova N.O', 10
- 3 **Ba'zi aniq integrallarni simpson formulasi bo'yicha taqribiy hisoblash**
Ne'matov A.R, Fayzullayev Sh.E, 19
- 4 **Matematikadan olimpiada masalalari va ularning yechish usullari**
Usanov M.M, 23

KIMYO FANLARI

02.00.00

ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

CHEMICAL SCIENCES

- 1 **8 - oksixinolinning kobalt (ii) atsetat bilan kompleks birikmasi sintezi va tadqiqoti**
Nazarov Y.E, To'rayev X.X, Ashurov J.M, Kasimov Sh.A, Jalilov A.T, 32
- 2 **Cu (ii) va naftalindisulfokislota asosida aralash ligandli metallokomplekslar sintezi**
Suyunov J.R, To'rayev X.X, Ashurov J.M, Kasimov Sh.A, Jalilov A.T, 39
- 3 **Oxford instruments pribori yordamida mahalliy kaolin xomashyosini kimyoviy tahlil qilish**
Tursunalieva D.T, Maxmudov M.S, Abdunazarov A.A, 45
- 4 **Технологическая схема и материальный баланс получения нкфу улучшенного качества**
Алламуратова А.Ж, Эркаев А.У, Реймов А.М, Таиров З.К, Казахбаев С.А, Абдимуратов С.Е, 51
- 5 **Математическое моделирование процесса крашения шелковых тканей с хитозаном**
Хазратова Д.А, Муродова С.Б, 60

BIOLOGIYA FANLARI

03.00.00

БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

BIOLOGICAL SCIENCES

- 1 **Janubi-g'arbiy qizilqum florasining psammofit va begona o'tlar tahlili**
Esanov H.Q, 66
- 2 **Молекулярно-генетические исследования на животных и их анализ**
Одильжанов Х.З, 73
- 3 **Биология пистии телорезовидной**
Муминова Р.Н, Махкамов Г.М, 77



4	Белки семян тыквы (<i>cucurbita l.</i>) И характеристика белковых фракций Баратова М.Р, Косимова Ш.М, Рахимова Ш.Х, Хидирова Н.К,.....	81
5	Farg'ona vodiysi sharoitida introduksiya qilingan asalli o'simliklar Xolikulov M.R,.....	86

09.00.00
FALSAFA FANLARI
ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES

1	Mahallalarda yoshlarning ijtimoiy muammolarni bartaraf etishdagi faolligi Abduvaliyev O.A,.....	93
2	Ekologik globallashuv sharoitida ekologik tarbiyaga bo'lgan ehtiyojning ustuvor vazifaga aylanishi Azamova S.A,.....	98
3	Badiiy adabiyotning jamiyat mafkurasini shakllantirishdagi ahamiyati Bayeshanov A.M,.....	102
4	Abu Homid G'azzoliy va Jaloliddin Rumiy qarashlarida nafs va uni tarbiyalash masalalari Zaynobidinova N.I,.....	108
5	Me'yor va milliy mentalitet Ergashev I.S, Sobirov D.A,.....	113
6	Yoshlarda mutolaa madaniyatini takomillashtirishning ijtimoiy- falsafiy muammolari Abdulazizov A.H,.....	121
7	A political factor in foreign language acquisition on the example of Uzbekistan Amonova S,.....	129
8	Ijtimoiy davlat: nazariya amaliyot (falsafiy-huquqiy yondashuv) Atavullayev M.A,.....	134
9	O'zbekiston hududidagi qadimiy tasvirlar va ularning miniatyura san'ati bilan bog'liqligini ko'rsatuvch omillar Yuldashev I,.....	139
10	Naqshbandiya ta'limotida nafs tushunchasi Navro'zova G.N,.....	145
11	Konstruktivistik paradigmaning asosiy yo'nalishlari Sultanova G.S,.....	151
12	Jadidchilik ijtimoiy ma'orifining milliy madaniy taraqqiyotga ta'siri Xolmatov G'M,.....	156
13	Ya'qubi Charxiyning jamoa tinchligi va barqarorligiga oid g'oyalari Zoyirov E.X,.....	162